



**ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARIDAGI ESKI
TURKIY TILGA OID LEKSIK VA GRAMMATIK SHAKLLARNING
ZAMONAVIY TRANSFORMALARI**

Qarshi davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Ergashev Sardor Kosimovich

sardorergashev665@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asardagi leksik va grammatik qatlam birlıklarning zamonaviy transformatsiyasiga doir masalalar, shuningdek, ularning hozirgi o’zbek adabiy tillardagi ko’rinishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: transformatsiya, leksik qatlam, grammatik shakl, zamonaviy qatlam, arxaizm, zamon kategoriyasi.

**MODERN TRANSFORMATIONS OF LEXICAL AND
GRAMMATICAL FORMS OF THE OLD TURKIC LANGUAGE IN
ALISHER NAVOI'S WORK “LISON UT-TAYR”**

Karshi State University

Independent researcher

Ergashev Sardor Kosimovich

sardorergashev665@gmail.com

Abstract: The article analyzes issues related to the modern transformation of lexical and grammatical layer units in Alisher Navoi's work “Lison ut-tayr” as well as their manifestations in modern Uzbek literary languages.

Keywords: transformation, lexical layer, grammatical form, modern layer, archaism, tense category.





СОВРЕМЕННЫЕ ТРАНСФОРМЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ И ГРАММАТИЧЕСКИХ ФОРМ СТАРОТЮРКСКОГО ЯЗЫКА В “ЛИСАН УТ-ТАЙР” АЛИШЕРА НАВОИ

Каршинский государственный университет

Независимый исследователь

Эргашев Сардор Косимович

sardorergashev665@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются вопросы современной трансформации лексических и грамматических единиц в произведении Алишера Навои “Лисон ут-тайр” а также их проявления в современных узбекских литературных языках.

Ключевые слова: трансформация, лексический пласт, грамматическая форма, современный пласт, архаизм, категория времени.

KIRISH. Har bir xalqning o'tmishi madaniyati va qadriyatini, madaniy an'analarini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri bu shu xalqning tilidir. Ulkan shoир, jamoat va davlat mislsiz tadqiqotchi sifatida o'z milliy tilining takomillashishiga, rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan bobokalonimiz Alisher Navoiydir. U o'z davridagi turkiy tilni har tomonlama boyitib, uni yuksak darajaga ko'tardi. “Shuni aytish joizki, Navoiy asarlarini ilmiy o'rganishda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, 1938-yildan boshlangan edi.” [Shamsiyev P. 1,1] Navoiy asarlarini tahlil va tadqiq etish ishlari bugungi kunda ham jadal olib borilmoqda. Bu asarlarni qancha o'rganib qancha tahlil etmaylik ular o'zida yana qancha ochilmagan sinoatlarni saqlab qolaveradi. Navoiy asarlari keljak avlod uchun ham bitmas- tiganmas manbadir. Xususan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari turk tilining qadimgi, leksik va grammatik qatlamlarini o'z ichiga olgan, turkiy adabiyotda eng yirik asarlardan biridir. Asarda ishlatilgan turkiy tilga oid muhim o'zgarishlar va ularning zamonaviy transformalari turkiy tilshunoslikda katta e'tibor qaratilgan mavzulardan biridir.



ASOSIY QISM. Transformatsiya tilshunoslikda so‘zlarning yoki so‘z birikmalarining til strukturasidagi o‘zgarishlarni anglatadi. Bu hodisa tilning ma’no, shakl, va struktura jihatidan rivojlanishini ta’minlaydi. Transformatsiya so‘zlarning bir grammatik birlikda bir ma’no ifodalab boshqa grammatik birlikda, ularning sintaktik joylashuvining o‘zgarishidan yangi stilistik yoki grammatik shaklga kirishiga olib kelishi mumkin. Xususan, “Lison ut-tayr” asarida Alisher Navoiy transformatsiya hodisasini asosan ikki yo‘nalishda amalga oshirgan: semantik va sintaktik transformatsiyalar. Xususan, tasavvufiy ramzlar, metaforalar va boshqa stilistik vositalar orqali bu hodisa yuzaga chiqadi. Navoiy o‘z asarida zamonaviy turkiy tildan farqli o‘laroq, o‘z davrining leksik va grammatik qatlamlarini ishlatgan. Asarda o’sha davrning o‘ziga xos leksik va grammatik tizimlari, jumladan, arabcha va forscha so‘zlar, ma’lumotlar va uslublar mavjud. Shuningdek, Navoiy turkiy tilning grammatikasi va sintaksisini boyitgan holda, o‘zining “Lison ut-tayr” asarini yaratgan.

“Lison ut-tayr” asarida turli tillarning (fors, arab, turkiy) so‘zlarining o‘zgacha shakllari va ma’nolari ko‘p ishlatilgan. Zamonaviy turkiy tilga qaraganda, ushbu asarda ko‘p sonli arxaizm va xususiy so‘zlar uchraydi. Navoiy tomonidan ishlatilgan so‘zlar hozirgi turkiy tillarda ba’zan o‘zgargan, ba’zan esa unutilgan.

Bir bor nazar solib o’ng-u so ’liga,

Eshagin topshirar tangri qo ’liga. [A.Navoiy. 2,421]

Misradagi ayrim so‘zlar zamonaviy tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirgan bo‘lsa, ba’zilari bungunda o‘zgargan shaklda ishlatiladi. Masalan: *Eshagin topshirar tangri qo ’liga.* Ushbu birikma majoziy ma’no ifodalab keladi. Bugunda bu ifodaning tangriga tavakkal qilish shaklidagi transformasi qo’llanadi. Bu kabi ifoda va shakllar bobomiz Navoiy asarlarida nihoyatda serob. Shu sababli, Navoiy asarlari, xususan, “Lison ut-tayr” asaridagi leksik qatlamlarni tushunish uchun ularni zamonaviy turkiy tilning strukturaliga moslashtirish kerak.

“Lison ut-tayr” asaridagi grammatik qurilmalar, jumladan, fe’l va ot shakllari, grammatik jins va son, predloglar va boshqa sintaktik tuzilmalar



zamonaviy turkiy tilda o'zgargan. Ba'zi grammatik shakllar bugungi kunda kam ishlatiladi yoki mavjud emas.

Eshagin asrashni nahot or bilding,

Ko'zimga dunyoni tang-u tor qilding. [A.Navoiy. 2,422]

Otning maxsus shakllari (masalan, otlardagi kelishik va jins qo'shimchalari) zamonaviy tilga qaraganda farq qiladi. Navoiy asarida ishlatilgan grammatik shakllarning ko'pchiligi bir yoki ikki gapda yuzaga keladi, lekin ular hozirgi kunda tillarda kamdan-kam uchraydi yoki ularning ma'nolari butunlay o'zgargan. O'zbek tilida hozirda faqat ba'zi arxaik shakllar ilmiy va adabiy kontekstlarda mavjud. Misol tariqasida bu bandga e'tibor beraylik.

Sen davo qilarsan mudom sarsari,

Tangriga yoqarmi bularning bari? [A.Navoiy. 2, 452]

Asarda qo'llangan eski o'zbek tiliga xos leksik va grammatik birliklarning zamonaviy o'zbek tilida qo'llanadigan ayni shu turdag'i birliklari orasida sezilarli farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Boshin uzra paydo bo'lib sarishta,

Menga savol berdi ikki farishta:

Kim sening yaratgan parvardigoring

To abad murabbiy nomus-u oring? [A.Navoiy. 2, 426]

Yoki

Yuksalar gar yuksak samoda a'lo,

Mag'rurligi bo'lar boshiga balo. [A.Navoiy. 2, 428]

Satrlardagi eski turkiy til va zamonaviy o'zbek tili solishtirilganda grammatik shakllar hamda yordamchilardagi transformatsion tafavvut yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, "Lison ut-tayr"ning o'ziga xos grammatik strukturalari va leksik birliklari zamonaviy tilga qaraganda ancha murakkab va poetik shakllarda ifodalangan. Shu bilan birga hozirgi o'zbek adabiy tilida "Lison ut-tayr" asarining ba'zi leksik va grammatik xususiyatlari zamonaviy jamiyatning lingvistik o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq o'rganishni talab etmoqda. Bugungi



kunda yangi so‘zlarning o’zbek tilga o‘zlashishi, grammatika va sintaksisidagi izlanishlar bu jarayonlarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shu jumladan “Lison ut-tayr” asaridagi eski turkiy tilga oid leksik va grammatik shakllarning zamonaviy transformalarini tadqiq etish bugunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asaridagi turkiy leksik va grammatik qatlamlar zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan juda muhimdir. Asardagi leksik va grammatik shakllarning zamonaviy transformatsiyasi tilning rivojlanishi, til o‘zgarishlari va adabiyotdagi muhim jarayonlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Navoiy asaridagi ba’zi elementlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan yoki o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, uning tiliga oid taddiqotlar, zamonaviy turkiy tillarning rivojlanishiga katta hissa qo‘sadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. P.Shamsiyev. Navoiy asarlari matnlarini o‘rganishning ba’zi masalari: f.f.d. ...diss. – T., 1969.
2. A.Navoiy. Lison ut-tayr. Yangi asr avlod. Toshkent. 2019. 542-b.